

REFLECTION OF THE POLICY OF REPRESSION IN THE UZBEK SOVIET PRESS

Namazova Nilufar Kambarkulovna,
Filologiya Fanlari Nomzodi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti. Fan: jurnalistika tarixi.
n.nilufarxon@mail.ru

Annotation

The article draws on an analysis of how the policy of repression was covered in periodicals published in the first half of the 20th century. In it, the resolute attitude of the Soviet state to the jadid intelligentsia was revealed through evidence.

Keywords: jadid, repression, periodical, soviet, politics.

SHO'RO MATBUOTIDA QATAG'ON SIYOSATINING AKS ETISHI

Annotatsiya

Maqolada XX asrning birinchi yarmida chop etilgan davriy nashrlarda qatag'on siyosatining qanday yoritilgani tahlilga tortilgan. Unda jadid ziyolilariga sho'ro davlatining qattol munosabati dalillar orqali ochib berilgan.


Kalit so'zlar: jadid, qatag'on, davriy nashr, sho'ro, siyosat.

Introduction

Turkistonda 1917-yili bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgach, sho'ro matbuoti tashkil qilinib, jadid nashrlarida ishlab yurgan jurnalistlar ishga taklif qilindi. Taraqqiyparvar jurnalistlar sho'ro matbuotida dastlab ancha erkin faoliyat yuritishdi. Xalqning og'ir ahvoli haqida hukumat idoralarini ogohlantirdi, turli masalalarda tanqidiy maqolalar yozishdi. Lekin ularning bu erkinliklari uzoqqa cho'zilmadi. Tarixdan ma'lumki, bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgan kundanoq qatag'on siyosatini olib borgan. Dastlab joylarda inqilobiy tribunallar tuzilib, bosh egmagan ziyolilar surgun qilingan. Masalan, Turkistondagi birinchi sho'ro gazetasi "Mehnatkashlar tovushi"ning bosh muharriri Hoji Muin 1921-yili gazetadan ishdan ketganida uni ayblovchilarga qarshi yozgan maqolasida muharrirlik davrida Farg'onaga 15 kunga surgun qilingani, "Maqolangizda Behbudiyning oti ko'p zikr qiling'on, bu millatchilikdir", deb maqolalarini senzura o'tkazmaganini yozadi. "Bular (bolsheviklar – N.N.) tirik yerliklar haqida qarshi harakatlar bilan qolmayin, o'liklarimizni ham go'rda rohatda qo'ymoqchi emasdir. Chunonchi, gazeta muharrirasi bo'lib o'tirg'on Z.Burnasheva: "Yaxshi bo'lg'on ekankim, Behbudiyni o'ldirilg'on ekan. Agar Behbudiyni bu kunda tirik bo'lsa edi, Turkistonning ustiga ikkinchi bir Anvar poshshoni keltirib, o'zi biror mansabga ega bo'lar edi", deb marhum ustozimizg'a tuhmat qilmoqdan keyin turmadi", deydi.

<https://ejedl.academiascience.org>

**Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong
Learning is a scholarly peer reviewed international Journal**



Tarixchilarimiz sovet qatag'onini to'rt davrga bo'lib ko'rsatishadi. [1] Qatag'onning birinchi bosqichi (1917–1924-yillar) Turkiston muxtoriyati ishtirokchilari, qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga qaratildi.

1918-yili RSFSRning Jinoyat kodeksi qabul qilinadi Shundan keyin yilma-yil joylarda qatag'on siyosatining organlari: favqulodda komissiya – ChK, Davlat siyosiy boshqarmasi – GPU, Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) tashkil etilib, ular qoshida “troyka”lar faoliyat yurita boshlagan. Qatag'on sotsializm qurish quroliga aylandi.

Qatag'onning ikkinchi bosqichida (1925–1930-yillar) jadidlar, ziyolilar, taraqqiyparvarlar ta'qib ostiga olindi va qatag'on qilindi.


Matbuotda 1926-yildan ziyolilar masalasi dolzarb mavzu sifatida ko'tarildi. Shu yilning yanvar oyida Toshviloyat firqa qo'mitasining yalpi majlisi bo'lib, unda Abdulhay Toji ziyolilar masalasi haqida nutq so'zlaydi. U ziyolilarni ikki qismga bo'ladi: “Bir qismi o'zgarishgacha bo'lg'on ziyolilar va ikkinchi qismi esa o'ktabr o'zgarishidan keyin maydong'a kelgan ziyolilardir”, deydi. Bu nutq “Qizil O'zbekiston” gazetasining 11-yanvar sonida bosiladi. Gazetaning 12-yanvar sonida Rahim In'omning “Ziyolilar to'g'risida. Bizning vazifalarimiz” sarlavhali maqolasi chop etiladi. U ziyolilarni uch toifaga ajratadi: “Birinchi, sho'ro ziyolilari, ikkinchisi eski ziyolilar, uchinchisi o'rtada qolg'on ziyolilar, ya'ni ikki tomonni ham yoqtirmaydirg'on ziyolilar”. U eski ziyolilarni millatchilikda ayblab, “...millatchilik boylar va mayda boylar ta'sirida qolishliqdan chiqqan bir narsadir. Sho'roning barcha xizmatlariga qiziqqon, komfirqa prog'rammasini amalga oshirish uchun kurashib, ijtimoiy, siyosiy xizmatlarda bo'lg'on ziyolilarning mafkurasi, “xayolparast ziyolilar”ning mafkurasidan butunlay ajraladir”, deydi.

“Ziyolilarga bizning qarashimiz” sarlavhali maqola muallifi Q.Bek birinchi bo'lib jadid ziyolilarini “ziyonlilar” deb ataydi: Ziyolilarni ikkiga bo'ldik. Ularning birisi... o'ktabrdan keyin “millatchilik” yo'lidan butunlay kechib, bizning lagerga o'tgan va sadoqat bilan bizning bayrog'imiz ostida ishchi-dehqonlar maqsadi yo'lida ishlab kelmakda bo'lg'on ziyolilar, ham o'ktabrdan keyin mehnatkashlarning o'z o'rtasidan yetishganlardir.

Ikkinchisi bo'lsa “millatchilik” va “islohotchilik” yo'li uchun bizda sharoit qolmag'on bo'lsa ham (haqiqatda ishchi, mehnatkashlar va dehqonlar uchun “millating”, “islohoting” nimaga ham kerak!) o'zlarining eski, siniq jomashovlaridan ajralgusi kelmagan ziyolilardir. To'g'risini aytganda ular ziyoli emas, ziyonlidir”. [2]

Shundan keyingi “Ziyolilar kim? Ziyonlilar kim?” sarlavhali maqola muallifi X.Marg'iloniy Turkistondagi sarmoyadorlar va jadidchilik haqida gapirib, “taraqqiyparvalar” ham shu to'pda edi, ular bir millat bolasimiz desalar ham, Turkiston kambag'allarini jahon boylarig'a sotmoqchi edilar” [3], deydi.

Ziyo Said “Ziyolilar masalasi ustida. Bizning hujjatlar” sarlavhali maqolasida Munavvarqori va uning atrofidagi ziyolilarni dalillar asosida qoralamoqchi bo'ladi. [4] Ular “Turkiston o'lkasida o'qish yaramag'onlig'in burchak-burchaklarda aytib ig'vo targ'atlashg'ulurina boshladilar. Shuning bilan endigina tuzalib, yangi yo'lga qarab atak



chechak qilib kelayotqon yoshlarning ba'zi birida Ovrupoda o'qish sezgusi uyg'ondi. O'ttizlab talabani Istanbulga yubordilar. Sho'ro maktablarida o'qib yurg'on durustgina yigitlarimizni "kommunistlar kasali"dan qutqazib qolish uchun ularga Ovro'poni "madaniyat ka'basi" deb tushundirib, o'shal tomong'a qarab sajda qilishni farz ekanin miyalariga mahkam joyladilar. So'ngra mamlakatning ko'magiga ishonib, "Ko'mak" uyushmasini borliqqa chiqardilar... O'lkaga maorif tarqatish maqsadi bilan ochilg'on "Nashri maorif" jamiyati atrofiga "tarbiya zaharlandi" deb sho'ro va mehnat maktablaridan o'pkalab yurg'on afandilardan: Munavvar Qori, muxtoriyatchi Said Nosir Mirjalilif, mashhur Tolibjon aka kabi "atoqli erlar" to'planib oldilar... Mafkura maydonida biz mana shu shaxslarga qarshi uzil-kesil kurash olib borishimiz lozim", deydi.

1926-yili bu kabi yana o'nlab maqolalar chop etildi. Ularda "eski" ziyolilarning ayblari imkon qadar "ochib" berildi. "Millatchilik" maqsadidan qaytganlari ham "faoliyatsizlik kasali"ga duchor bo'lgani, bu "dushman ishi" ekani, "sho'ro ziyolisi – mehnat ziyolisi ekani" qayd etildi. Sotsializm qurish ishida qatnashmaslik "dushman ishi" deb baholandi. Turkiyada o'qib kelgan ziyolilar pana-pastqam joylarda shivirlashib, o'z bilimini xalqdan yashirayotganlikda ayblandi.


1926-yili RSFSRning yangi jinoyat kodeksi qabul qilinadi. Unda 58-moddaning 14 bo'limi davlatga qarshi jinoyat qilganlarga qaratildi.

O'zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasiga muvofiq mehnatkash bo'lmagan qatlamlardan chiqqan ko'pgina ijtimoiy tabaqalar saylov huquqidan mahrum etildi. Bu qatag'on domiga tortish uchun ma'lum bir tayyorgarlik bosqichi edi. 1926–1927-yillarda chaqirilgan maorif va madaniyatchilar qurultoylari, ular munosabati bilan o'tkazilgan o'nlab yig'inlar ziyolilarning bir-biriga tosh otishi, ayblovlar yog'dirishi bilan o'tganligi matbuotda to'la yoritilgan. Bunda Akmal Ikromov, Ziyoy Said, Komil Aliyev, Botu kabi o'nlab ziyolilar ishtirok etishgan.

Qatag'onning uchinchi bosqichi (1930–1936-yillar) davlat rahbarlari, fan arboblari, "yot unsur" tamg'asi ostida xalqning turli qatlamlariga qaratildi.

Bular barchasi 1937–1938- yilgi katta terrorga hozirlanish edi. 1937-yili 30-iyulda SSSR Ichki ishlar xalq komissari Nikolay Yejov imzosi bilan "Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet unsurlarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya to'g'risida"gi "mutlaqo maxfiy" buyruqdan keyin qatag'on o'zining avj nuqtasiga chiqdi. Xulosa qilib aytganda, o'tgan asrning 20-30-yillarida o'zbek matbuoti milliy mustaqillik uchun kurashgan ziyolilarni mehnatkash xalqning dushmani sifatida qoralash minbariga aylandi. Chunki sho'ro davlatining asl maqsadi ularni butunlay yo'q qilib tashlash edi. Shuning uchun ularning har birining ortidan odam qo'yilib, matbuotda ham maqolalar uyushtirildi. Afsuski, partiyaning qattol qarorlari, ko'rsatmalariga "labbay" deb javob bergan jurnalistlar, rahbar xodimlar bir-birlarini qoralash, tanqid qilish orqali o'z jonlarini qutqarib qololmadilar. Chunki mustaqillik, istiqlool uchun kurash g'oyalaridan ular ham xabardor edilar. Yilt etgan ozodlikka intilish fikrini millatning ongidan o'chirib tashlash lozim edi. Kuchli bosim orqali

<https://ejedl.quadrantjournal.org> yuzaga keltirish, barchani mehnatga majbur qilish



kabi totalitar harakatlar xalq tabiatida mutelikni tarbiyalashi lozim edi. Qatag'onning Ikkinchi jahon urushidan keyingi bosqichi buni ko'rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Hoshimov. Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'on siyosati va uning oqibatlari. – T.: Akademnashr, 2018.
2. "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1926. 2-aprel.
3. "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1926. 20-aprel.
4. "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1926. 6-may.